

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI.....	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxhonqir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLIŞ VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLIŞ INSTITUTINING TADRIJIIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

FACTORS AFFECTING UZBEK LANGUAGE LEARNING AND DECOLONIZATION: (DE)COLONIAL EMOTIONS, ETHNICITY AND SELF-PERCEPTION

Tilyabaev Kamil Zaitjonovich,
Westminster International University in Tashkent,
PhD in Education and Social Justice, senior lecturer

Abstract. This article examines the relationship between learning and decolonizing the Uzbek language. Particular attention is paid to factors such as (de)colonial feelings, ethnicity, and self-perception. It is shown that decolonization and the corresponding emotions are independent of ethnicity. At the same time, a nation with certain emotions, self-perception and thinking is capable of substantial decolonization.

Keywords: Uzbek language learning, decolonization, emotions, ethnicity self-perception.

O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH

Tilyabayev Kamil Zaitjonovich,
Toshkentda Xalqaro Vestminster universiteti,
Ta'lim va ijtimoiy adolat bo'yicha falsafa doktori, katta o'qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilini o'rganish va dekolonizatsiya qilish o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqilib, (de)kolonial hissiyot, millat va o'z-o'zini anglash kabi omillarga e'tibor qaratiladi. Dekolonizatsiya va unga xos his-tuyg'ular millatga bog'liq emasligi ko'rsatilgan. Qolaversa, muayyan his-tuyg'ular, ong va tafakkurga ega bo'lgan xalq sezilarli dekolonizatsiyaga erishishga qodir.

Kalit so'zlar: o'zbek tili o'rganilishi, dekolonizatsiya, his-tuyg'ular, millat, o'z- o'zini anglash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N53>

Kirish. Dekolonizatsiya deganda ko'pincha mustamlakachilikdan voz kechib mustaqillikka erishish tushuniladi, ammo mustaqil holatda ham yashirin davomiy mustamlakachilik kuzatilishi keng tarqalgan holdir. Bu ozodlikka erishgan millatning sobiq mustamlakachiga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, xususan lisoniy jihatdan bog'liq bo'lishida ko'rish mumkin. Til dekolonizatsiyasi esa sobiq mustamlakachining tiliga nafaqat grafik, grammatik, leksik, uslubiy yoki imloviy jihatdan qaramligini yo'qotish, balki uning mantig'idan, boshqa tillarning rivojini, ulardan foydalanish doirasini chegaralab qo'yishdan voz kechish demakdir. Til dekolonizatsiyasi ko'pincha kam sonli millat va ellatlar tillari, o'layotgan yoki yo'qolish xavfi bor, shuningdek yozma tarixga ega bo'lmagan, standartlanmagan yoki ta'lim tili maqomiga ega bo'lmagan tillarga nisbatan ishlatiladi. Mamlakatimizning davlat tili bo'lmish o'zbek tili yuqorida aytilgan biron bir ta'rifga to'g'ri kelmaydi, shuning uchun uning

dekolonizatsiyasini ko'rib chiqish va til o'rganishdagi hissiy tajribalarga bog'lash nafaqat O'zbekiston uchun balki global miqyosda ham dolzarb hisoblanadi [1].

Tilyabaev [1] his-tuyg'ular, xususan noqulay ustunlik hissi til o'rganilishi va dekolonizatsiyasi o'rtasida kesishma nuqtasi bo'lishi mumkinligi namoyish etdi, bu esa o'zbek tilining o'rganilishiga uning dekolonizatsiyasini bog'lashga yordam beradi. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganish tajribalarida aniqlangan his-tuyg'ulardan faqat uyat/sharmandalik va aybdorlik noqulay ustunlik hissiga misol bo'la oladi [2]. Shuni yodda tutgan holda, ushbu maqola o'zbek tilining dekolonizatsiyasiga hissa qo'shishi yoki to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan aybdorlik va uyatga/sharmandalikka ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga qaratilgan. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida uzoq muddatda rasmiy va norasmiy ravishda o'rganayotganlarning dekolonial tafakkurni rivojlantirishda muvaffaqiyat qozona olmaganliklariga alohida e'tibor qaratiladi. Umid qilamanki, bunday fikrlash rivojlanishiga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillarni hisobga olish O'zbekistonda o'zbek tilini o'qitishga dekolonial tamoyillarni joriy etishga yordam beradi.

Uslubiy qism. Ma'lumotlar o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgangan va/yoki o'rganishda davom etayotgan 20-40 yoshdagi 25 ta O'zbekiston fuqarosi hamda o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatayotgan o'qituvchilar bilan individual suhbatlar orqali to'plangan. Olingan ma'lumotlardan tadqiqot maqsadlarida foydalanish, ularning xavfsizligi, maxfiyligi va manbalarini taxalluslash BERA [3] axloqiy me'yorlariga muvofiq ta'minlandi. Olingan ma'lumotlar narrativ tahlil usuli yordamida qayta ishlangan [4] va to'rtta narrativ-hikoya shaklida muallifning doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan. Ushbu maqolada "(De)kolonial his-tuyg'ular, millat va o'z-o'zini anglash" deb nomlangan faqat bitta narrativ-hikoya taqdim etiladi.

Natijalar taqdimoti va muhokamasi. Til va millat o'rtasidagi kuchli bog'liqlik borligini [5] hisobga olgan holda, suhbatdoshlarimning millati o'zbek tilining dekolonizatsiyasiga ta'sirini o'rganish mantiqiy ko'rinadi. Men ushbu masala bo'yicha natijalarimdagi umumiy trend ta'riflashdan boshlayman. Keyin o'zbek millatiga mansub bo'lmagan suhbatdoshlarimning tegishli tajribalari bilan o'rtoqlashaman. Nihoyat, o'zbek millatiga mansub bo'lgan suhbatdoshlarimning tegishli tajribalarini keltirib, ular o'rtasida dekolonizatsiya birdamligi mavjudmi yoki yo'qmi deb xulosa chiqaraman.

Men suhbatlashgan etnik o'zbeklarning aksariyati o'zbekcha bilishlarini o'rtacha va yuqori deb baholashgan bo'lsa-da, tadqiqotimning millati o'zbek bo'lmagan ba'zi ishtirokchilari (Vikentiy va Elshod) yanada kuchli til ko'nikmalariga ega, chunki ular nafaqat o'zbekcha yaxshi gapirishadi, balki o'zbek tilida ilmiy ishlar yozib, nashr ettirishadi. Bundan tashqari, ma'lum bir millatga mansublik avtomatik ravishda o'zbek tiliga nisbatan dekolonial tafakkur mavjud yoki mavjud emasligini ta'minlamaydi. Shunga qaramay, millat omilini ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqib, ba'zi qimmatli xulosalar chiqarish mumkin.

Millati o'zbek bo'lmagan suhbatdoshlarimdan deyarli hech kim o'zbek tili bilan bog'liq mustamlakalik tuyg'ulari haqida hech narsa aytmadi, va shunday bo'lishi o'zi kutilgan edi. Aslida, ularning aksariyati ajablanmasdan va afsuslanmasdan O'zbekistonda o'zbek tilining mavqeyi kuchayganini tan olishdi. Mustamlakalik bilan bog'liq yagona tez-tez ko'tarilgan masala rus tili ularga o'zbek tilini o'rganishga to'sqinlik qilganligi yoki qilmaganligi haqida bo'lib, bu ularni ikkita deyarli teng sonli guruhga ajratgan. Masalan, 1980-1990-yillarda

Toshkent va uning atrofidagi rus tilli muhitda [6] o'sgan Taisiya (otasi boshqird, onasi ukrain) va Nina (millati rus) rus tilining o'zbek tilini o'rganishga salbiy ta'sirini tan olishdi:

Buning sababi shundaki, deyarli hamma Sovet davrida ruscha bilgan. Ko'p odamlar hali ham ruscha yaxshi tushunishadi. Ko'pchilik hali ham o'zbekcha bilish ahamiyatini tushunishmaydi. (Taisiya)

O'zbekiston Sovet ittifoqi tarkibida bo'lganligi uchun bu yerda rus tilining ahamiyati juda katta edi. Shubhasiz, rus tilining ustunligi o'zbek tilini o'rganishimizga to'sqinlik qildi. (Nina)

Vladislav (millati rus) esa rus tilining ta'siri haqida ko'proq tanqidiy qarashga ega:

Rus tilining ta'siri juda ham destruktiv. Bu, ehtimol, 1924-yilda O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganidan beri davom etmoqda. Hayotning barcha sohalarida, shu jumladan kundalik hayotda ham faol va shafqatsiz ruslashtirish sodir bo'lmoqda. Natijada titul millatning ko'plab vakillari o'z tilini bilishmaydi. Albatta, kundalik hayotda odamlar tabiiy ravishda tug'ilganidan beri gaplashadigan tilda gaplashadilar. Albatta, ular o'zbekcha muloqot qilishadi. Ammo men texnik sohada ishlayman ... Tajribamdan kelib chiqqan holda aytishim mumkinki, temir yo'l sohamizda o'zbek tili hech qachon asosiy til bo'lmagan, chunki metroda va temir yo'lda barcha haydovchilar va dispetcherlar faqat 380uscha gaplashadilar. Siz u yerda boshqa tilda gaplasha olmaysiz. Bu taqiqlangan, chunki tushunmovchilik va ko'p muammolar sodir bo'lishi mumkin. Bu shunday bo'lib qolgan. Aytgancha, maxsus hujjatlarning barchasi ham faqat rus tilida yoziladi.

Shunday qilib, Vladislavning gaplari rus tilining mustamlakachiligi hali ham amalda davom etishiga dalil sifatida xizmat qilishi mumkin. Nina va Taisiyaning so'zlaridan esa buni payqash qiyin, chunki ular shunchaki o'zbek tilini o'rganmaslikka bahona bo'lishi mumkin.

Ulardan farqli o'laroq, 1980-1990-yillarda O'zbekiston viloyatlarining o'zbekona muhitda o'sgan Lora (millati koreys), Vikentiy (millati rus), Elshod (otasi qirim tatar, onasi uyg'ur) [7] hamda Toshkentda o'sgan Aynisa (millati tatar) rus tili o'zbek tilini o'rganishga to'sqinlik qilayotganini aytmagan. Til o'rganishni muhit bilan birdamlikka bog'lash mantiqiy ko'rinadigan bo'lsa-da, buning asl sabablari "muloqot qilish zarurati" (Lora) va "davlat sektorida martaba orttirish imkoniyati" (Vikenty) bo'lib, ularning dekolonial birdamlikka hech qanday aloqasi yo'q shaxsiy manfaatlarga asoslangan [8]. Dekolonial birdamlikni faqat Elshod misolida ko'rish mumkin:

Men o'zbek jamiyatining to'laqonli a'zosi bo'lishni xohlardim va hatto etnik o'zlik inqirozini boshdan kechirdim. Qirim tatar va uyg'ur qonim borligi uchun dekolonizatsiya haqida shaxsiy tajribam sifatida gapirishim mumkin edi¹. Ammo meni bu dekolonizatsiya yo'lga men sevgan o'zbek tili, tarixi va madaniyati soldi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, Loraning tarixi Elshodnikiga o'xshaydi. U etnik koreys, uning ajdodlari Stalin davrida Uzoq Sharqdan O'zbekistonga surg'un qilingan [11]. Ammo Elshoddan farqli o'laroq, Lora rus tilining o'zbek tiliga katta ta'sirini tan olsa-da, uning mustamlakachiligini ko'ra olmagan:

O'zbek tilida «kartoshka» kabi so'zlar mavjud bo'lib, ularning o'zbekcha muqobili yo'q. Biz so'kish leksikasini olsak ham, u yerda ruscha so'zlar ham juda ko'p. Ularni yo'qotish qiyin, chunki ular uzoq yillar davomida ishlatilib kelinmoqda.

¹ Qirim tatarlar va uyg'urlarning mustamlakachilikka qarshi kurashlari haqida ko'proq ma'lumot olish uchun Engelhardt va Shestakova [9] hamda Turdush [10] ilmiy ishlariga qarang.

Ehtimol, o'zbek filologiyasini bilish Loraga rus tilining o'zbek tiliga ta'sirini chuqurroq anglashga imkon berardi. Ammo o'zbek tilshunosligiga oid bilimlar til mustamlakachiligini ko'rish uchun yetarli emasga o'xshaydi, chunki intervyu bergan ko'plab o'zbek tili o'qituvchilari o'zbek tili mutaxassislari bo'la turib, rus mustamlakachilik ta'sirining yagona unsuri sifatida o'zbek tilida ruscha o'zlashmalar mavjudligini ko'rishgan. Masalan,

Men til dekolonizatsiyasini uning sofligi uchun kurash deb tushunaman. Biroq, o'zbek tili bilan bog'liq muammolar juda ko'p ekanligini hisobga olsak, uning sofligi uchun kurashishni hozir birinchi o'ringa qo'yish kulgili, deb o'ylayman. (Gulxumor)

Shu bilan bir vaqtda, suhbatda qatnashgan o'zbek tili o'qituvchilarining ko'pchiligi o'zbek va boshqa tillarni hozirgi qo'llab-quvvatlash tizimlarida tengsizlikdan shikoyat qilishgan. Masalan, bizniki kabi nufuzli universitetda chet ellik talabalarga o'zbek tilini o'rgatish bilan shug'ullanadigan jamiyat yo'q. Ilgari (o'n yil oldin) bo'lgan, endi yo'q. Yo'qligining sababi shundaki, chet ellik talabalarining rus yoki ingliz tillarini bilishlari talab qilinadi. Ular uchun o'zbek tili majburiy hisoblanmaydi. Yana bir sababi shundaki, universitetimiz o'qituvchilari rus yoki ingliz tillarida o'qitishni yaxshi o'zlashtirganlar. Bu chet elliklarga qulay bo'lsin deb amalga oshirildi. Boshqa talabalarga kelsak, o'zbek tili turlicha, ya'ni o'zbek tilida o'qitilmaydigan guruhlariga (ilgari ikki yil, hozir bir semestr), mutaxassis bo'lmagan guruhlariga (uch yildan keyin to'xtatiladi), ixtisoslikka oid o'zbekcha atamalarni bilishi shart bo'lgan guruhlariga o'qitiladi. Ish soatlarini qisqartirish sababi ta'lim tizimining yangilanishi va kredit modul tizimiga o'tishidir (Narimon).

Asosiy qiyinchilik – o'zbek tilida kontent yetishmasligi. O'zbek tilida manbalar juda oz. Siz ularni izlashingiz kerak. Bundan farqli o'laroq, ingliz yoki fransuz tillaridagi manbalar juda ko'p. Bundan tashqari, ba'zi o'quvchilarimning o'zbek tili faniga bo'lgan munosabati mening ishimni qiyinlashtirmoqda. Ular: «Nega bizga o'zbek tili kerak? Universitetga o'qishga kirsam, mendan o'zbek tilini hech kim talab qilmaydi», deyishadi. (Lutfiya)

Etnik o'zbeklar orasidagi suhbatdoshlarimga kelsak, 18 kishidan faqat uchitasi (Lola, Karima va Bahodir) O'zbekistondagi o'zbek tili bilan bog'liq hozirgi vaziyatga davom etayotgan yashirin mustamlakachilik sabab deb aniq ko'rsatib berdi, va buni quyidagilarda: 1) rus tilining o'zbek tiliga kuchli ta'sirida [12]; 2) o'zbek tiliga past nazar bilan qarashda [13]; 3) davom etayotgan epistemitsidda (masalan, o'zbek tilida turli bilim sohalariga taalluqli yuqori sifatli kontent yo'qligida [14]; 4) jamiyatda chinakam dekolonial xatti-harakatlarining umuman yo'qligida [15] ko'rish mumkin. Boshqalar (15 tasi) buni aytmadilar, lekin mustaqil O'zbekistonda rus tilining o'zbekcha bilish darajasiga ta'siri haqida qiziqarli fikrlar bildirishdi. Masalan, ulardan ba'zilari «rus tili o'zbek tilini o'rganish ahamiyatini pasaytirdi» (Umayra), uni o'rganishga to'sqinlik qildi (Vali va Azamat) yoki «o'zbek tili rivojlanishini to'xtatdi» (Salima), deb aytishdi. Shu bilan birga, Umayra va Parvina rus tili O'zbekistonda ikkinchi davlat tili maqomini olishiga qarshi emas. Davlat tillarining bir nechtaligi yomon narsa emas, ammo ular teng kuchga ega bo'lmasa, kuchsizroq tilning dekolonizatsiyasi amalga oshishi dargumon [16].

Ba'zilar, shuningdek, o'zbek tili bilan bog'liq hozirgi vaziyatga rus tili emas, balki «xalqimizning mas'uliyatsizligi» (Sevda), shaxsiy tanlov (Lola, Sarvar), muhit ta'siri (Latofat, Parvina) va mamlakatimizning Rossiyaga nisbatan do'stona munosabatda bo'lishi (Bobomurod va Ruxshona) sababdir, deyishdi. Umuman olganda, ushbu javoblar quyidagi fikrni tasdiqlaydi: «[...] tillarni tillar emas, balki ularning egalari o'ldiradi, o'z tillaridan voz kechib o'ldiradi, garchi ular rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ekotizimlardagi o'zgarishlarning qurbonlari bo'lsalar

ham» [17; 20-b]. Lekin faqat Vali va Azamat o'zbek tilini keraksiz deb bilishda hech qanday muammo ko'rmadilar, chunki ular uchun bu qayerda yashash va ishlashga bog'liq bo'lgan shaxsiy yoki oilaviy tanlov masalasi edi. Boshqalar esa O'zbekistonda ko'p yillardan beri yashaganlariga qaramay, o'zbek tilini o'rganishga ham urinmaganlarni, hattoki o'z farzandlarini ham tanqid qilishdi.

Biroq, bu 15 kishi o'zbek tilini o'rganishdagi qiyinchiliklarini hech qachon mustamlakachilik oqibati deb hisoblamagan va shuning uchun hech qachon bundan pushaymon va/yoki xafa bo'lmagan. Menimcha, Sevda bu fikrni juda yaxshi ifodalab berdi:

Men bu haqda hech qachon chuqur o'ylamagan ekanman. Men rus tilini doim tabiiy hol deb bilganman. Bundan tashqari, ota-onam ham men bilan ruscha gaplashardi. Mustamlakachilik salbiy tusga ega, ammo men rus tilining ta'sirida salbiy narsa ko'rmayapman.

Xulosa. Shunday qilib, ularning ko'pchiligida kolonial tuyg'ular yo'q. Boshqacha qilib aytganda, ular Zembylas [18] nazariyasiga ko'ra dekolonizatsiya yo'lidagi birinchi qadam bo'lgan mustamlakachilikning murakkab emotsional tarixini tan olmadilar. Etnik o'zbeklar orasida ikkita qarama-qarshi guruh mavjud, ya'ni o'zbek tilini o'rganish qiyinchiliklarini mustamlakachilik oqibati deb biladiganlar va buni o'zgartirishni istayotganlar, shuningdek, ularning mustamlakalik tabiatini ko'rmaydiganlar ham bor. Demak, ular orasida dekolonial birdamlik yo'q deb aytish o'rinlidir. Bu dekolonial birdamlikni faqat Zembylas [18] taklif qilganidek, mustamlakalangan xalq *bilan* hamjihatlik sifatida emas, balki mustamlakalangan xalq *ichidagi/orasidagi* hamjihatlik sifatida tushunishning muhimligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, birdamlik nafaqat dekolonizatsiyaga, balki mustaqil tanlashga qaratilgan muhim qadamdir [19]. Buni intervyuda qatnashgan etnik o'zbeklarning aksariyati dekolonizatsiya jihatidan birdamlik ko'rsatmay, ajdodlarining tili uchun dekolonizatsiyani tanlamayotganligidan ko'rish mumkin. Bundan tashqari, birdamlik dekolonizatsiyaning uchinchi bosqichi bo'lgan kundalik hayotda yashirin mustamlakachilik mantig'ini fosh qilish uchun zamin yaratadi [18]. Masalan, Bahodir Sovet (mustamlakachi) hukumati tomonidan ilk bor amalga oshirilgan lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tishning qanchalik dekolonial chora ekanligini shubha ostiga qo'yadi, Karima esa familiyasini o'zgartirish haqida o'ylamoqda, chunki -eva qo'shimchasini rus mustamlakachiligidan meros deb biladi. Shunday qilib, o'z-o'zini anglash, dekolonial birdamlik va mustaqil tanlov bo'lmasa, o'zbek millatiga mansublikning o'zi o'zbek tilining dekolonizatsiyasiga olib kelishi dargumon. Biroq, etnik o'zbeklar O'zbekiston aholisining 83,8 foizini tashkil etishini hisobga olsak [20], yuqorida aytib o'tilgan sifatlarga ega millat dekolonizatsiyaga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Tilyabaev, K., 2024. *Exploring the emotional dimension of Uzbek language decolonisation: insights from the experiences of learning Uzbek as a second language*. Lancaster University.
2. Zembylas, M., 2018. Con-/divergences between postcolonial and critical peace education: Towards pedagogies of decolonization in peace education. *Journal of Peace Education*, 15(1), pp.1-23.
3. 2018. BERA Ethical Guidelines for Educational Research. 4th ed. [ebook] London: BERA, Available at: <<https://www.bera.ac.uk/publication/ethical-guidelines-for-educational-research-2018-online>> [Accessed 21 February 2021].
4. Smith, B., 2016. Narrative analysis. *Analysing qualitative data in psychology*, 2, pp.202-221.
5. Fishman, J.A., 2017. Language and ethnicity: The view from within. *The handbook of sociolinguistics*, pp.327-343.

6. Peremkulov, J.A., 2021. History of Demography of Industrial Cities of Tashkent Region. *International Journal on Integrated Education*, 4(12), pp.80-87.
7. Dadabaev, T., 2004. Post-Soviet realities of society in Uzbekistan. *Central Asian Survey*, 23(2), pp.141-166.
8. Morris, K.B., 2020. Decolonizing solidarity: cultivating relationships of discomfort. In *Pathways of Settler decolonisation*. Routledge. pp. 62-79.
9. Engelhardt, A. and Shestakova, S., 2022. Crimean Tatar Infrastructures of Decolonial Care. *European Review*, 30(4), pp.532-544.
10. Turdush, R., 2022. *East Turkistan's Right to Sovereignty: Decolonization and Beyond*. Rowman & Littlefield.
11. Kim, A., Surzhik, M. and Mamychev, A., 2021. Soviet Koreans and Far Eastern NKVD in the 1930s. *East Asia*, 38, pp.93-103.
12. Khairi, A., 2016. Linguistic revivalism and national identity in Uzbekistan. *International Studies*, 53(3-4), pp.258-272.
13. Norov, I. and Amanklichev, I., 2021. "The Role of Modernity in the Formation of the Uzbek Language as the State Language" ("IT is a Mirror of the Existence of a Nation in the World His Life is in His Language and Literature"). *JournalNX*, 6(06), pp.773-775.
14. Shozamonov, S.I., Nazarova, S.A. and Djuraev, B.B., 2021. Problems of development of the Uzbek language in current society. *Open Journal of Modern Linguistics*, 11(4), pp.613-620.
15. Gorshenina, S., 2021. Orientalism, postcolonial and decolonial frames on Central Asia: Theoretical relevance and applicability. in: Jeroen Van den Bosch; Adrien Fauve; Bruno De Cordier (eds.), *European Handbook of Central Asian Studies: History, Politics, and Societies*, (Stuttgart: ibidem Verlag), pp.177-241.
16. Amorim, R., Baltazar, R. and Soares, I., 2020. Linguistic legacies of British and Portuguese (de) colonization in Africa: (un) successful common bonds? *Public Sciences & Policies*, 6(1), pp.13-31.
17. Mufwene, S.S., 2002. Colonisation, Globalisation, and the Future of Languages in the Twenty-first Century. *International Journal on Multicultural Societies*, 4(2), pp. 1-48.
18. Zembylas, M., 2022. Toward affective decolonization: Nurturing decolonizing solidarity in higher education. *Journal of Curriculum and Pedagogy*, pp.1-20.
19. Zembylas, M., 2023. Revisiting "Pedagogy of Discomfort" Through the Combined Lenses of "Inconvenience" and "Affective Infrastructure": Pedagogical and Political Insights. *Philosophical Inquiry in Education*, 30(3), pp.193-206.
20. CIA, 2021. *The World Factbook/Uzbekistan*. Available at: <https://web.archive.org/web/20210203042919/https://www.cia.gov/the-world-factbook/countries/uzbekistan/> (Accessed: 6 January 2024).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).